



## THE ROLE OF THE ZARAFSHAN ISSUE IN THE STRENGTHENING OF THE POLITICAL DEPENDENCE OF THE EMIRATE OF BUKHARA

**Behzod Eshqobilov**

PhD Candidate

Tashkent State Technical University

[behzodeshqobilov2200@gmail.com](mailto:behzodeshqobilov2200@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Kattaqorgon, Samarkand, Kaufman, A. Donish, I. Geyer, irrigation ditch, canal, water divider, tanob

**Received:** 20.10.25

**Accepted:** 21.10.25

**Published:** 22.10.25

**Abstract:** This article provides detailed information on the political dependence of the Bukhara Emirate on the Zarafshan district of the Turkestan Governorate, the agreements concluded in this regard, as well as the increasingly difficult situation of the agricultural sector in the emirate as a result of the increasing water shortage in the emirate, and the work carried out by the emirs in this regard, based on the memoirs of the authors of the time and archival documents.

## ZARAFSHON MASALASINING BUXORO AMIRLIGI SIYOSIY TOBELIGI ORTISHIDAGI O'RN

**Behzod Eshqobilov**

Toshkent davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti

[behzodeshqobilov2200@gmail.com](mailto:behzodeshqobilov2200@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Kattaqo'rg'on, Samarqand, Kaufman, A. Donish, I. Geyer, ariq, kanal, suv ayirg'ich, tanob.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro amirligining asosiy sug'orish tizimi bo'lgan Zarafshon daryoso suvi masalasida Buxoro amirligining Turkiston general-gubernatorligi Zarafshon okrugiga siyosiy qaram bo'lishi bu borada amalga oshirilgan shartnomalar shuningdek amirlikda suv tanqisligi holatini oshib borishi natijasida qishloq xo'jaligi sohasining yanda og'ir ahvolga kelishi amirlarning bu borada amalga oshirgan ishlari

to'g'risida arxiv hujjatlari o'sha davr mualliflari esdaliklariga asoslanib batafsil ma'lumot beriladi.

## РОЛЬ «ЗАРАФШАНСКОГО ВОПРОСА» В РОСТЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЗАВИСИМОСТИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

**Бехзод Эшқобилов**

Кандидат наук

Ташкентский государственный технический университет

[behzodeshqobilov2200@gmail.com](mailto:behzodeshqobilov2200@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Каттакурган, Самарканд, Кауфман, А. Дониш, И. Гейер, арык, канал, водоразделитель, таноб.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются возникновение, жанры и направления современной художественной литературы нового времени, а также её глубокие эмоции и сильные характеры, выраженные через понятие «современная художественная литература». Анализируются социально-экономические, политические и духовно-культурные процессы этого периода, социальный статус творческих личностей и изменения в отношении людей к художественной литературе. Отмечается, что эти процессы придали художественной литературе новые и уникальные особенности.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda mavjud yer va suv manbalari zahirasining kamayib borishi insoniyatning asosiy global muammosiga ayanib bormoqda. Xususan, Markaziy Osiyo hududida bunday muammolar yuzaga kelishining asosiy ildizlari XVIII-XX asrlarga borib taqaladi. Buxoro amirligida bunday muammoning yuzaga kelishida ushbu davrdagi siyosiy vaziyat, ya'ni mang'itlar sulolasining zaiflashuvi va irrigatsiya tizimining ta'mirtalab holga kelishi hamda o'lkaning istibdod davrini boshidan kechirganligi, yer-suv manbalari mustamlakachilar tomonidan tasarruf qilinganligi, bu hududning tarixiy o'tmishi va an'alaridan bexabar shaxslar tomonidan ushbu sohada olib borilgan ko'r-ko'rona ishlar bilan bevosita bog'liq. Ayni shu jihatdan mazkur masalalarning tarixiy ildizlarini o'rganish bugungi kunda talab darajasiga ko'tarilib bormoqda.

**Tadqiqot va natijalar.** Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so'ng, o'lkadagi davlatlar bilan diplomatik aloqaga kirishish uchun o'ziga xos muassasalar shakllantirildi. 1873-yil 24-sentabrda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi tomonidan imzolangan ikki tomonlama shartnomaga ko'ra imperiya amirlik hududida o'z

vakiliga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritdi [1]. Rossiya siyosiy agentligi tashkil etilgunga qadar Rossiya bilan amirlik o'rtasidagi munosabatlar Buxoro amirligi qo'shbegisi va Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi diplomatik bo'lim amaldorlari tomonidan amalga oshirilgan.

Zarafshon suvi masalasida Buxoro Samarqandga qaram bo'lgan. Shuning uchun ham Zarafshon vodiysining yuqori qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng Samarqand Turkiston general-gubernatorligining bir qismiga aylantirildi. Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlarda suv masalasi alohida o'rin tutdi. 1872-yil har ikki tomon vakillari ishtirokida Samarqandda Buxoro va Samarqand shahri o'rtasidagi suv taqsimoti masalalari bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiya Buxoro va Samarqand o'rtasidagi suv taqsimotining qadimgi tartiblarini muhokama qilib, mavsumda Buxoro uchun 2 marta (15 apreldan 15 maygacha va 15 avgustdan 15 sentabrgacha) daryo suvini qo'yib yuborishga qaror qildi.

XIX asrning 80-90-yillarida Samarqand vohasida sug'oriladigan dehqonchilik maydonlari kengaytirilib, Zarafshon suvining ko'pi ana shu vohaning yuqori qismida sarf bo'la boshladi. Natijada Buxoro vohasi tez-tez suv tanqisligiga uchrab turdi. Chunki bu hududlarda ekin turlaridan sholi ko'proq ekila boshlandi. Ushbu ekin turi boshqa o'simliklarga nisbatan ko'p suv talab qiladigan boshqoli o'simliklardan hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu yerlarda asosan sholi ekilishi natijasida, bu yerda suv bug'lanib, aholi orasida turli xil kasalliklar yuzaga kelishi va epidemiyaga olib keldi. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy og'ir vaziyat Buxoro amirligini Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarni mo'tadillashtirish va imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi farmonlarni qabul qilishga majbur etdi. Shu bilan bir qatorda, amirlik ushbu masala yuzasidan Turkiston general-gubernatorligi va Rossiya imperatoriga bir necha marta murojaat orqali vaziyatni yengillashtirishga harakat qildi. Oqibatda Buxoro va Samarqand o'rtasidagi suv masalasini ko'rib chiqish va zaruriy choralar ko'rish maqsadida suv taqsimoti komissiyasi tuzildi. Va ushbu masala komissiya tomonidan 1894, 1895 va 1902-yillarda qayta-qayta muhokama qilindi. Komissiya Buxoro va Samarqand vohalaridagi sug'oriladigan yer maydoni hajmini nazarda tutib, quyidagicha qaror qildi:

1) Zarafshonda suv qancha bo'lishidan qati nazar, daryo suvining uchdan ikki qismi (67%)ni Samarqandga, uchdan bir qismi (33%) ni Buxoroga tashlash;

2) mavsumda ikki marta (2 apreldan 20 aprelgacha va 18 avgustdan 5 sentabrgacha) Buxoroga tashlanadigan suv miqdorini ko'paytirish. Ammo bu bilan Buxoro va Samarqand suv taqsimoti masalasi hal bo'lmadi. Chunki qurg'oqchilik yillarida Zarafshon suvi belgilangan vaqt oralig'ida hattoki Buxoro shahriga yetib bormaganligi natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'p qismi nobud bo'lishiga olib keldi. Bu esa aholining turmush tarzi, soliq

majburiyatlari va yerdan foydalanish borasidagi manfaatlariga jiddiy zarar yetkazdi. Buning oqibatida esa amirlik xazinasiga keladigan daromad yildan yilga kamayib bordi. Bu esa vassal davlatning imperiya siyosatiga yanada tobe bo'lishiga olib keldi. XIX asr oxirlarida Zarafshonning yuqori oqimida suv omborlari barpo etish va Buxoroga Amudaryodan suv chiqarish g'oyalari paydo bo'ldi.

Suvdan foydalanish borasida Samarqand viloyatini Buxoro amirligidan mustaqil qilib ajratib olish masalasining jiddiyligi va muhimligi bo'yicha ham fikr bildirgan amaldor, Zarafshonni erkin tasarruf etish muammosiga hozirda mahalliy aholi yaqiniga ruslarni ko'chirib kelish, bo'sh yerlarda yangi qishloqlar barpo etish kabi vazifalar masalasi ham qo'shilmoqda. Yangi qishloqlar uchun 4.900-5.500 desyatina maydon ko'zda tutilgan. Demak, ushbu hududga 5-5,5 ming dehqon oilalarini yoki 25 ming kishini ko'chirib kelish mumkin – deb ta'kidlaydi [2].

N.Shavrov Samarqand viloyatida ham suvdan foydalanish madaniyati ibtidoiy darajada bo'lganligini aytib, juda katta miqdordagi suv isrof bo'layotganligini, bu holat esa, o'z navbatida, viloyatning turli joylarida botqoqliklar hosil bo'lishiga zamin yaratayotganligini, bu bezgak kasalligini keltirib chiqarishini ta'kidlaydi.

A.Muhammadjonov tadqiqotida Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqand egallangandan keyin bu yerda Zarafshon okrugi tashkil etilganligi, Zarafshon daryosining boshlanish qismi general-gubernatorlik nazoratiga o'tganligi, bu esa Buxoroni suvga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash gubernatorlikning buyrug'i asosida amalga oshirilishini anglatishi, amirlik suv taqsimoti bo'yicha Zarafshon okrugiga tobeligini ko'rsatib o'tgan [3].

Umuman olganda, Turkiston general-gubernatorligi uzoqni ko'zlab, Buxoro amirligiga suv masalasida juda ehtiyotkorlik yo'lini tutib, Buxoroni imkon qadar suv bilan ta'minlashga harakat qilgan bo'lsa-da, suv taqsimotida yo'l qo'ygan kamchiliklari, ya'ni dehqonlarga suv zarur vaqtda berilmasdan, aksincha, keraksiz vaqtda suvni ochib yuborilishi Buxoroning tabiiy muhiti va ekologiyasiga jiddiy zarar yetkazgan.

Shuningdek, A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, Buxoroni bo'ysundirish yo'lida vodiyning suv manbaidan foydalanish rejasining paydo bo'lishi va uning harbiy qo'mondonligi doirasida muhokama etilishi tasodifiy voqea bo'lmay, balki tabiiy bir hol edi. Chunki dehqonchilik xo'jaligi sun'iy sug'orishga asoslangan Sharq mamlakatlarida juda qadim zamonlardan boshlab suv manbalari va irrigatsiya inshootlari, bir tomondan, markaziy hokimiyat qo'lida mehnatkash xalqni ekspluatatsiya qilish va uni o'z qo'lida tobelikda tutib turish uchun asosiy qurol sifatida xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, chet el bosqinchilari uchun obod vohalarni bosib olishda qarshilik ko'rsatuvchi mudofaa kuchlariga zarba berish uchun qulay

vosita bo'lgan. Shuning uchun ham dushman dastavval asosiy suv manbalarini egallashga va ularga o'rnatilgan irrigatsiya inshootlarini buzib tashlashga harakat qilgan [4].

Turkiston general-gubernatori M. Chernyayev o'lkadagi suv resurslarni boshqarishni qayta ko'rib chiqib, 1882 yilda 20 dekabrda sug'orish tizimlarini nazorati qilish va boshqarish to'g'risida buyruq chiqaradi. Unga ko'ra, Suv xo'jaligi boshqarmasi o'rniga an'anaviy boshqaruv, ya'ni ariq oqsoqollari komissiyasi boshqaruviga o'tiladi [5]. O'lkada suvdan foydalanish tartibining tez-tez o'zgarib turganligi bu boradagi ishlarning samarasizligi bilan yakunlangan. Suvdan foydalanishda qat'iy talab va nazorat o'rnatilgan bo'lishiga qaramasdan, unga biriktirilgan mas'ullarning adolatsizligi tufayli suv taqsimotida xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Bu esa birinchi navbatda mintaqadagi ekologik muhitga salbiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan, suv taqsimoti masalasida aholi o'rtasida doimo nizo va janjallar kuzatilgan. Tadqiqotchi O.Zaripovning ishida [6] general-gubernatorlar tomonidan suvdan foydalanish yuzasidan qabul qilingan qonun va tartiblar bir-biridan keskin farq qilmaganligi qayd etiladi.

Ariqlarning bosh qismlari yaroqsizlik holati sababi muhandis Petrovskiy tomonidan ikki xil tushuntirilgan:

1. Zarafshon tez-tez o'zining toshloq tub yuzasini oqizib yuvib turadi, suv sathi pasayib, kanal boshlariga yetarlicha bormaydi, masalan: Tuyatortar arig'i. Oqibatda ariqdan chiqarilgan ikkinchi darajali ariqlar har doim ham yetarlicha suv qabul qilib olmaydi.

2. Mahalliy aholining haddan ortiq betartib tarzda suvdan foydalanishi, ya'ni faqat ariqboshiga e'tibor qaratib, uning chiqish qismini obod qilishga kam e'tibor qaratilishi oqibatida kanal tub yuzasi ifloslanib, tiqilib qolgan [7].

Bu ikkita sababdan tashqari, uchinchi sabab ham bo'lgan. Chunki avvallari bu yerlarda ko'p aholi yashab, ishchi kuchi yetarli bo'lgan, ular butun sug'orish tizimini ishlatib, tozalab, magistral kanallar bosh qismlarini sozlab turgan. Ammo o'lkani ruslar bosib olishidan oldinroq ushbu tumanlarda epidemik kasalliklar (vabo, bezgak...) odam sonini keskin kamaytirib yuborgan. Natijada qolgan ishchi kuchlar murakkab rivojlangan sug'orish tizimini boshqara olmay, borgan sari kanallar uzunligi qisqarib, ularning tubi ifloslanib ko'tarilib ketgan. Mutaxassis fikriga ko'ra, "Zarafshon sug'orish tizimi orqali sug'orilgan joylar Samarqand uezdida 6 ta va Kattaqo'rg'onda 2 ta bo'lgan. Jumladan, Bulung'ur dashti sug'orish uchun Tuyatortar kanali, maydoni 5500-6000 desyatina bo'lgan Dashtiqozi dashtining sug'orish uchun Qo'shtut daryo arig'i, 2500-3000 desyatina maydonga ega bo'lgan Dupula dashti va 3-5 ming desyatinani egallagan Qirtau tog' etaklaridan shimoldagi hududni suv bilan ta'minlashga Manash arig'i, 4.500 desyatinaga ega bo'lgan Tayix shayx dashti uchun Payariq arig'i kabi sug'orish

tizimlarini to'g'rilash va tozalash ishlari talab qilinadi. Birgina, Fedorovskiy qishlog'i uchun Payariq tozalanishi 1.000 rublga tushgan" [8].

O'lkaning oliy rahbari tomonidan ma'qullangan farmoyishga ko'ra, [Buxoro xonligi va Samarqand viloyati o'rtasida suv taqsimlanishi quyidagicha belgilangan: may oyigacha Zarafshon faqat Buxoroga oqadi, may oyi davomida faqat uning 33 foizi, iyun va iyul oylarida esa faqat 55 foizi Buxoroga oqadi [9].

Agar Zarafshon iyundan avgustgacha bo'lgan davrdagina soniyasiga 19-20 ming. kub. fut. suv keltira olishini inobatga olsak, keltirilgan suv foizlarini amalda tadbiq etilishi mushkul, ayniqsa, Zarafshonning qurg'oq mavsumli yillarida bu muammo yaqqol ko'zga tashlangan.

Mazkur suv taqsimoti yetkazadigan zarar ko'lami ba'zida Zarafshon vodiysi bo'ylab joylashgan 20 ta volost xo'jaligini qamrab olgan. 20 ta volostdan 18 tasida sholi yetishtirish jadal rivojlangan dehqonchilik turi bo'lib, ularning maydoni Yer soliq komissiyasi suratga olish ishlariga muvofiq, 4.000 desyatini tashkil etgan. Ulardan 13 ta volostlarda sholi yetishtirish yetakchi o'rinda edi [10].

Ariqlarga suv kelishini tartibga solib, suvlarni Buxoroga o'tkazish uchun katta mehnat sarflanib, ariq boshi inshootlarining mustahkam emasligidan ariqlar shunchalik zararlanganki, ba'zida inshootlarni butkul yangidan qurishga to'g'ri kelgan.

Suvdan foydalanish jarayonida miroblar tomonidan suv taqsimotida adolatsizlikka yo'l qo'yilib, miroblar suv hali dehqon yeriga yetib kelmasdan, ulardan pora talab qilganlar. "Suv keltirish, ariqlarni tozalash uchun viloyatlardan bir necha marta mardikor olib kelish talab qilinardi, bunda kelganlardan ham kelmaganlardan ham zo'rlik bilan ikki tangadan olinardi" [11]. A.Donish Buxoro amirligi devonxonasida ish yuritish tizimida jiddiy muammolar mavjudligini ta'kidlab, arizalarning mazmuniga qarab, ularga javob berish, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan arizalarga kech, madaniy hordiq chiqarishga qaratilgan xatlarga barvaqt javob berilishini qattiq qoralaydi [12]. A.Donish bu fikrlari bilan hukmdorning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik holati bilan bog'liq masalalarga bee'tiborligini ko'rsatib o'tadi. Muallif amir Muzaffar davrida Buxoro amirligi hududlarida obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlari izdan chiqqanligi, mamlakat tanazzulga yuz tutganligi, aksariyat ekin maydonlari suvsizlikdan quriganligi, bunga sabab Buxoro suvining ruslar tasarrufiga o'tganligi deb hisoblaydi. Buning oqibatida ko'pchilik dehqonlar o'z hududlarini tashlab, Sirdaryo atrofidagi ruslarga qarashli yerlarga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Samarqand suv masalasida "Buxoroning kaliti" hisoblangan. Samarqanddan Buxoro amirligi hududining 3/1 qismi suv bilan ta'minlangan.

Garchi imperiya o'rtasida Buxoroni belgilangan vaqtlarda suv bilan ta'minlash to'g'risida shartnoma bo'lsa-da, unga amal qilmagan.

Zarafshon daryosining yuqori qismi Turkiston o'lkasi hududi hisobida bo'lganligi uchun chor hukumatining Samarqanddagi ma'murlari undan Buxoroni iqtisodiy jihatdan o'ziga qaram qilish maqsadida foydalana boshlashdi. Ular turli xil vajlar va bahonalar bilan amirlik hududidagi aholiga deyarli suv bermay qo'yishdi. Buxoro ahli ba'zan oylab Zarafshon suvidan mahrum bo'lishar, ularning ekin maydonlari esa suvsizlikdan qurib, qaqrab qolardi. Bu esa, o'z navbatida, hosilsizlikni keltirib chiqarib, aholi yashashini og'irlashtirib qo'yardi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, ushbu holat nihoyat keskin ravishda kuchayib, katta muammolarni keltirib chiqardi. Natijada Buxoro hukumatining qat'iy talabi bilan ushbu masala bo'yicha ikkala tomon o'rtasida bir necha bor muzokaralar bo'lib o'tdi.

Zarafshon daryosi suvini taqsimlash va undan oqilona, kelishgan holda foydalanish bo'yicha Rossiya bilan Buxoro ma'murlari o'rtasida davom etgan uzoq muzokaralardan so'ng, 1894-yil 27-mayda quyidagi bir kelishuvga kelishildi. 15-noyabrdan 10-martga qadar Samarqand viloyati aholisi ichimlik suvi va ba'zi bir hayotiy masalalar bilan bog'liq joylarga beriladigan suvdan tashqari, barcha suv amirlik hududiga berilishiga, 10-iyundan 15-avgustga qadar esa Zarafshon daryosi suvining 60 foizi Zarafshon vohasining ruslar tasarrufidagi hududlariga, qolgan 40 foizi esa Buxoro hududlariga berilishiga kelishildi.

Ikkala tomon o'rtasida shunday kelishuv haqida bitim imzolangan bo'lsa-da, Samarqanddagi rus ma'murlari unga amal qilishmadi va Buxoroni iqtisodiy jihatdan aynan mana shu suv ta'minoti masalasi bilan ochiqdan-ochiq o'zlariga bog'lab qo'yish, boshqacha qilib aytganda, o'zlariga tobega aylantirish ishlarini davom ettiraverishdi.

Chor hukumatining Samarqand viloyatidagi ma'murlari aynan mana shu Zarafshon daryosi suvi taqsimoti orqali Buxoro iqtisodiyotini to'la o'zlariga tobe qilib qo'yishdi. Buxoro qishloq xo'jaligi ko'p holatlarda suv tanqisligi tufayli rivojlana olmay, og'ir ahvolga tushib qoldi. Biroq, shunisi ajablanarliki, Peterburgdagi rus hukumati ma'murlari rus burjuaziyasi Buxoro paxtasiga nihoyatda muhtoj ekanligini yaxshi bilar va suv ta'minotini baribir ijobiy hal etish lozimligini tushunar va aynan shuning uchun ham joylardagi o'z ma'murlariga ushbu masalaga to'g'ri yondashishni tavsiya etishardi.

Xulosa o'rnida Rossiya hukumati va uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari asta-sekinlik bilan Buxoro amirligi iqtisodiyotiga kirib kelib, uning ustidan to'la hukmronlikni qo'lga kiritdi. Chor hukumatining Samarqand viloyatidagi ma'murlari Zarafshon suvi taqsimoti masalasi ustidan gegemonlikni qo'lga kiritib, Buxoro hududlari suv ta'minotini o'ziga qaram qilib, ushbu yo'l orqali ham amirlik iqtisodiyotini o'ziga bo'ysundirdi va Buxoro amirligini iqtisodiy



qaramga aylantirish borasida ilk qadamni qo'ydi. Rus hukumati Rossiya ichki bozorlarini egallash va u yerda ham o'z hukmron-ligini o'rnatish bo'yicha siyosatni amalga oshirishga katta e'tibor qaratdi. XIX asrning 70 – 90 - yillariga kelib, Buxoro ichki bozorlarida amirlik iqtisodiy hayoti uchun zarur va muhim bo'lgan deyarli barcha sanoat mahsulotlari Rossiyadan olib kelinadigan bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zMA, I-3-fond, 2-ro'yxat, 1-yig'majild, 2-varaq.
2. O'zMA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 12060-yig'ma jild, 4-varaq.
3. Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи... – Б.189-197.
4. Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи... – Б.177-178.
5. O'zMA, I-36-fond, 1-ro'yxat, 2237-yig'ma jild, 11-13-varaqlar.
6. Зарипов О. 1867-1917 йилларда Туркистон генерал-губернаторлиги Сирдарё вилоятида ер эгалиги ва сувдан фойдаланиш тизими. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент: 2022. – Б.88.
7. O'zMA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 12060-yig'ma jild, 1-varaq.
8. O'zMA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 12060-yig'ma jild, 1-varaqning orqasi.
9. O'zMA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 12060-yig'ma jild, 2-varaqning orqasi.
10. O'zMA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 12060-yig'ma jild, 2-varaqning orqasi.
11. Дониш Аҳмад. Рисола ёҳуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи / А.Дониш. – Тошкент : “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2014. – Б. 74.
12. Дониш Аҳмад. Рисола ёҳуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи... – Б.89.